

3-sonli shartnoma (kontrakt)

Toshkent shahar _____
 (shartnoma tuzilgan joy)

«21» 02 2022y.
 (shartnoma tuzilgan sana)

Bundan buyon "BUYURTMACHI" deb ataluvchi MChJ "Suvmaxsusta'mir" nomidan «NIZOM» asosida faoliyat olib boruvchi boshligi Adusalimov S.G. bir tomondan va bundan buyon "Ish Bajaruvchi" deb ataluvchi Amu-Surxon ITXB xuzuridagi NSEB nomidan «NIZOM» asosida faoliyat olib boruvchi raxbari Abduraimov A. ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

1. ShARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Buyurtmachi" xizmatlarni qabul qilish va to'lash, "Ish Bajaruvchi" esa Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha quyidagi xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi:

No	Xizmatlar nomi	O'chov birligi	Miqdori	Birlik uchun shartnoma narxi	Shartnomaning umumiyligini qiyamasi (bitim summasi)
1	Д 1600-90 rotorini kapital ta'mirlash	dona	1	7 300 000	7 300 000
	Д 5000-32 rotorini kapital ta'mirlash	dona	1	16 000 000	16 000 000
	Д 6300-27 rotorini kapital ta'mirlash	dona	1	16 200 000	16 200 000
	jami				39 500 000

1.2. Shartnomaning umumiyligini qiyamasi 39 500 000 summa so'z bilan (O'ttiz to'qqiz million besh yuz ming) so'm 00 tiyin (QQS bilan) tashkil qildi.

1.3. Xizmat ko'rsatishni boshlash va tugatish muddati: Boshlanishi: 21 02 2022y. Tugashi: 10 03 2022y.

2. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani g'aznachilik organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kalendar kuni ichida qonunchilikka muvofiq shartnoma umumiyligini summasidan 30% miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 90 kalendar kuni ichida qabul qilish dalolatnomasi, hisob-faktura v.b. asosida to'laydi.

2.2. Xizmat ko'rsatish yakunlangandan keyin "Xizmat ko'rsatuvchi", "Buyurtmachiga" bajarilgan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini taqdim etadi.

2.3. "Buyurtmachi" dalolatnoma va unga ilova qilingan boshqa hujjatlarni olgandan keyin 5 bank ish kuni ichida imzolangan dalolatnomani yoki xizmatlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilish xatini "Xizmat ko'rsatuvchiga" ga yuboradi.

2.4. Rad qilingan holatda, ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilinishi yuzasidan kamchilikliklarni bartaraf etish ro'yxati va muddati bo'yicha tomonlar o'tasida dalolatnoma tuziladi.

3. ShARTNOMANING BAJARILISHI

3.1. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiliklari va shartnoma talablari va shartlariga muvofiq ijro etilishi shart.

3.2. Shartnomaning shartlarini bajarishni bir tomonlama rad qilish yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiliklida o'nataligan hollar bundan mustasno.

3.3. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

3.4. Buyurtmachining roziligi bilan xizmatlar muddatidan avval ko'rsatilinishi mumkin.

3.5. Ko'rsatilgan xizmatlar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar miqdori va ularning sifati ko'rsatiladigan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKHLARI**4.1. Buyurtmachi:**

- shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari muvofiqligi;
- xizmat ko'rsatuvchi bilan shartnoma tuzish yoki xizmat ko'rsatuvchi bilan shartnoma tuzishni rad etish muddatiga rivoja etilishi (ajratilgan byudjet mablag'lari kamayishi holatlari bundan mustasno);

4.2. Ko'rsatilgan xizmatlarni tanlab olmaslik, shuningdek xizmat ko'rsatuchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni xizmatlari ko'rsatganda, xizmatlari qabul qilib olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun buyutmachi xizmat ko'rsatuvchiga qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) xizmatlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Qabul qilib olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, xizmat ko'rsatuvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu ishlarni bajarilganligining kafolatlarini taqdim etgan holda, qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) xizmatlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.3. To'lov talabnomasi aktseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida xizmatlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshirinomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Bajarilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Ish Bajaruvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan xizmatlarni ko'rsatish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi buyurtmanomalar shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;
- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilganligi uchun javob beradi.

4.5. Agar ko'rsatilgan xizmatlar standartlar, sifati, texnik shartlar, qonun hujjatlari yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, xizmat ko'rsatuvchidan sifati lozim darajada bo'limgan xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, xizmatlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan

summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'lмаган xizmatlar ko'rsatganligi uchun jarima xizmat ko'rsatuvchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.6. Xizmatlarni ko'rsatish muddati o'tkazib yuborilgan yoki ko'rsatilmagan hollarda Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachiga har bir o'tkazib yuborilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyalarning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar qiyomatining 50 foizidan oshiga yo'l qo'yilmaydi. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani tegishli tarzda bajarish va xizmatlar ko'rsatish muddatini o'tkazib yuborilishi yoki ko'rsatilmasligi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudsaga hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita xo'jalik sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar iqtisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi xo'jalik sudida ko'rib chiqiladi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarini bajarilmasligi holatlari yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari natijasida vujudga qelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.

6.2. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lмаган tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlari (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarini bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlari kiradi.

6.3. Shartnoma tomonlaridan qaysi biri uchun majburiyatlarini yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi tomonga bu xaqda 10 kun ichida ushbu holatlari harakati sababini dalillar bilan taqdim etishi lozim.

6.4. Shartnomaga asosan majburiyatlarini ijro qilish muddati ushbu yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) ta'siri 60 kundan ortiqroq davom qilsa, tomonlar tashabbusiga binoan shartnoma bekor qilinishi mumkin.

7. BOShQA ShARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

8. ShARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan vaqtidan kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrigacha amal qiladi.

8.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra 1 (bir) oy davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarining bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

9. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

"ISH BAJARUVChI"

Tashkilot nomi : "MChJ "Suvmaxsusta'mir"

Manzil: Toshkent sh. Xusayn Bayqaro ko'ch. 9

Telefon: 71 295-20-26

Faks:

STIR kodi: 201224015

OKED: 33120

X/R : 20208000000153956001


Bank: Xalq Bank Bektemir filiali

MFO: 00830

Raxbar (direktor): Adusalimov S.G.

(imzo)

M.O.



Amanqahmos Vizasi: Men N.S. va E.B. ning xuquqshunosi, ushbu shartnomaga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari talablariga mos kelishligini aniqladim:

S. Sadorova
(F.I.Sh.)

Eugze
(imzo)

«31» 02 2022 yil
(sana)

"BUYURTMAChI"

Tashkilot nomi: Amu-Surxon ITXB xuzuridagi NSEB

Manzil: Termiz sh. Yoshlik ko'ch. 8

Tel/faks: 76 221-22-70

STIR kodi: 200475210

OKED: 01613

Buyurtmachining G'azna shaxsiy hisobvarag'i:

100021860214017042402170005

G'aznachilik nomi: Surxondaryo viloyati Faznachiligi

G'aznachilik bo'linmasi INN raqami: 201122919

Yagona G'aznachilik hisobvaraqlari (YAG'H):

23402000100190001010, MFO: 00014,

Bank: NKKM MB Toshkent sh BB

Raxbar (direktor): Abduraimov A.

(imzo)

M.O.

